



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



CULTURAL UNITS OF GERMAN AND UZBEK PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS AND THE PROBLEMS ARISING IN TRANSLATION

Gulshan Ergasheva

PhD candidate

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Lecturer at the Department of German Language

Chirchik State Pedagogical University

qulshan_199191@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: phraseologism, culture, translation, equivalence, strategy, conceptual metaphor, types of translation.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the role of phraseological units (phrasemes) in expressing the culture and historical memory of a nation. Phrasemes are studied as a linguo-cultural tool reflecting the people's worldview, values, mentality, and historical events. The significance of conceptual metaphor in the expression of phraseological units is also analyzed.

NEMIS VA O'ZBEK FRAZELOGIZMLARINING MADANIY BIRLIKLARI VA TARJIMADA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLARI

Gulshan Ergasheva

Tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Nemis til kafedrası o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gulshan_199191@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: frazeologizm, madaniyat, tarjima, ekvivalentlik, strategiya, konseptual metafora, tarjima turlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologizmlarning xalqning madaniyati va tarixiy xotirasini ifodalashdagi oʻrni tahlil qilinadi. Frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, mentaliteti va tarixiy voqealarini aks ettiruvchi lingvomadaniy vosita sifatida oʻrganiladi. Frazeologizmlarni ifodalashda kopnseptual metaforaning ahamiyati ham tahlil qilinadi.

КУЛЬТУРНЫЕ ЕДИНИЦЫ НЕМЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Гульшан Эргашева

Соискатель степени PhD

Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Преподаватель кафедры немецкого языка

Чирчикского государственного педагогического университета

gulshan_199191@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеология, культура, перевод, эквивалентность, стратегия, концептуальная метафора, типы перевода.	Аннотация: В статье анализируется роль фразеологизмов в выражении культуры и исторической памяти народа. Фразеологизмы изучаются как лингвокультурное средство, отражающее мировоззрение, ценности, менталитет и исторические события народа. Также анализируется значение концептуальной метафоры в выражении фразеологизмов.
---	--

Kirish. Frazеologizmlar til tizimining oʻziga xos qatlamini tashkil etib, xalqning madaniyati, qadriyatlari va tarixiy xotirasini saqlovchi “lingvomadaniy kodlar” sifatida xizmat qiladi. Har bir xalqning dunyoqarashi, milliy urf-odatlar va hayot tarzi frazeologik birliklarda oʻz aksini topadi. Shu sababli frazeologizmlar nafaqat lingvistik birlik, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham oʻrganilishi lozim.

Oʻzbek va nemis frazeologizmlarining qiyosiy oʻrganilishi ikki xalqning madaniy dunyoqarashidagi umumiylik va farqlarni ochib berishga, shuningdek, tarjima jarayonida ekvivalentlik muammosini ilmiy asosda hal qilishga yordam beradi. Frazеologik birliklarni tarjima qilish jarayonida koʻpincha soʻzma-soʻz moslik boʻlmaganligi sababli, tarjimon pragmatik maqsad, madaniy konnotatsiya va obrazli ifodaning taʼsirini saqlash zaruratiga duch keladi.

Nemis frazeolog olimi Flaysher ham “Tilning lugʻat boyligi nafaqat yangi soʻzlar (neologizmlar) ning hosil boʻlishi, chet tillaridan oʻzlashtirilishi va soʻz birikmalari orqali sodir boʻladi. Balki, ayrim soʻzlarning semantik oʻzgarishi, soʻz birikmalari va soʻz turkumlari maʼlum maʼnolarda sintaktik “turgʻun” birikishidan hosil boʻlgan iboralar tufayli ham ortib boradi” kabi fikri bilan frazeologizmlar tilning lugʻat boyligini oshishida oʻz oʻrniga eka ekanligini taʼkidlab oʻtadi. [1: 7]

Frazеologizm — bu kamida ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, maʼnosi tarkibiy qismlarning yigʻindisidan farq qiluvchi, barqaror birlikdir. Ularni tilshunoslikda idiomatik birliklar yoki frazeologik turgʻun birikmalar deb ham ataladi. V.N. Teliya frazeologizmlarni

“madaniyat belgisi” sifatida ta’riflab, ular xalqning kollektiv ongida shakllangan qadriyat va stereotiplarni ifodalashini qayd etadi. [2: 54]

Frazeologizmlarni o’rganishda uch asosiy yondashuv mavjud deb aytsak bo’ladi. Dastlabki yondashuv bu struktural yondashuv deb atasak, frazeologik birliklarning grammatik va leksik xususiyatlarini tahlil qiladi. Keyingi yondashuv esa semantik yondashuv hisoblanib, u frazeologizmlarning ichki ma’nosi, metaforik asoslarini o’rganadi. Hamda so’nggi yondashuv sifatida lingvomadaniy yondashuv mavjud bo’lib, bunday yondashuv frazeologizmlarni xalq madaniyatining ko’zgusi sifatida talqin qiladi. Yana bir nemis frazeologi bo’lmish H.Burger ham o’zining frazeologiya sohasiga bag’ishlagan asarlaridan birida “frazeologizmning umumiy m’nosi, leksiklashgan birlik sifatidagi ma’nosi, ularni tashkil etuvchi alohida so’zlarning ma’nolari yig’indisiga mos kelmaydi. Frazeologik ma’no, so’z birikmasi anglatayotgan to’g’ridan-to’g’ri ma’noga nisbatan butunlay o’ziga xos yoki yangi bir butundir” degan fikrni anglatib o’tadi. [3: 1]

Bundan ko’rinib turibdiki, frazeologizmlar albatta so’zdan yoki so’z birikmasidan farqlanadi.

Umuman olganda frazeologizmlarni turli yo’nalishlar orqali o’rganish, ularni yanada ochilmagan qirralarini ochib beradi. So’nggi vaqtlarda frazeologizmlarga bag’ishlangan izlanishlarning soni ortib bormoqda. Turli yetakchi olimlar yangicha yo’nalishlarda frazeologizmlarni talqin qilib, tilshunoslik sohasining yanda taraqqiy etishida o’z hissalarini qo’shib kelishmoqda. Mana shunday olimlardan Lakoff va Johnson 2003-yilda o’zlarining “Metaphors We Live By” asarida konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, inson tafakkuri va tilining metaforik tabiatini o’rganishgan. Bu nazariya frazeologizmlarni tahlil qilishda juda muhim, chunki frazeologik birliklar ko’pincha konseptual metafora asosida yaratiladi. Aslida konseptual metafora bu nima?

Nutqda metaforalardan keng foydalanish fikrlarimizni ta’sirchan hamda jozibali qiladi. So’zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Metaforlarning shunday turi borki u nafaqat tilning uslubiy xususiyati, balki bu fikrning o’zidir ya’ni inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir. Bu konseptual metaforadir. U ham badiiy adabiyotda ma’lum janrlarni shakllantiruvchi, shoir-u yozuvchilarning eng muhim badiiy quroli, ham barcha til foydalanuvchilari uchun eng neytralidir. Bunday metafora nafaqat dunyodagi ma’lum bir vaziyat haqida xabar berish, gapirish uchun balki, u haqida o’ylash uchun ham ishlatamiz. Shuning uchun ham u oddiy metaforalardan farqlanadi.

Umuman olganda frazeologizmlarning ko’pgina qismi konseptual metafora yordamida shakllanadi. Misol uchun inson tanasi bilan bog’liq bo’lgan metafora: Bunda ikki tilda ko’rib chiqamiz.

Nemischa: kalte Füße bekommen - ushbu frazeologizmni soʻzma-soʻz tarjima qiladigan boʻlsak oyoqlari sovuq boʻldi, oyoqlari sovqotdi deb tushunish mumkin. Ammo uning haqiqiy maʼnosi – “qoʻrqib qolmoq” degan maʼnoni anglatadi.

Oʻzbekcha: “Qoʻrquvdan oyoq-qoʻllari boʻshashdi” degan frazeologizmni biz konseptual metafora usulida yaratilgan deya olamiz.

Tabiat bilan bogʻliq metaforani ham misol tariqasida koʻrishimiz mumkin.

Inglizcha: “to break the ice” – muzni sindirmoq deb tarjima qilinadi, ammo u “suhbatni boshlash” degan maʼnoni anglatadi.

Oʻzbekcha: Suv muzini eritmoq - odamlar orasidagi sovuqlikni yoʻqotmoq kabi maʼnolarni anglatadi.

Konseptual metaforalar umuminsoniy tajribaga tayansa-da (tanaviy sezgilar, tabiat hodisalari), frazeologizmlar ularni milliy-madaniy kodlar bilan boyitadi.

Masalan, oʻzbek tilida “Mehmon otangdan ulugʻ” maqoli MEHMON — QADRIYAT metaforasini ifodalasa, nemis tilida “Ordnung muss sein” iborasi TARTIB — HAYOT ASOSI konseptini koʻrsatadi.

Frazeologizmlarni tadqiq qilishda bir nechta yondashuvlardan foydalanish mumkin: etimologik tahlil, lingvokulturologik konseptlarni ajratish, korpus asosida qoʻllanish xususiyatini oʻrganish, turli tillar oʻrtasida qiyosiy tahlil qilish. Mazkur metodologik asoslar yordamida frazeologizmlarning xalq madaniyati va tarixiy xotirasini aks ettirish mexanizmlarini chuqurroq tushunish mumkin.

Frazeologizmlar tilshunoslikning nafaqat semantik va grammatik jihatlarini, balki madaniyatshunoslik bilan uzviy bogʻliqligini ham koʻrsatadi. Frazeologizmlar madaniyat bilan oʻzaro bogʻliqligini koʻp bora taʼkidlab kelmoqdamiz. Frazeologizmlar yordamida maʼlum bir xalqning orzu-umidlari, xotirasi, baxt tushunchasi kabi maʼnolarni ifodalashi mumkin.

V. N. Teliya frazeologik birliklarni xalqning madaniy kodlarini saqlovchi vosita sifatida talqin etgan. Madaniy konnotatsiya, aniqrogʻi, madaniy-milliy konnotatsiya xususiyatlarini tahlil qilishda tilning frazeologik tarkibida mustahkamlangan obrazlar tizimi oʻziga xos tarzda dunyoqarashni toʻplash uchun “nish” (joy/muhit) boʻlib xizmat qiladi va u yoki bu tarzda berilgan til jamiyatining moddiy, ijtimoiy yoki maʼnaviy madaniyati bilan bogʻliq boʻladi, shu sababli u uning madaniy-milliy tajribasi va anʼanalaridan dalolat berishi mumkin. [2: 215]

E.Piirainen esa idiomalarning madaniyatlararo tarqalishini oʻrgangan. Uning fikricha, frazeologizmlarni ularning kelib chiqishiga koʻra tasniflaganda, koʻpincha dixotomiya (ikki qismli boʻlinish)ni uchratish mumkindir:

1. Birinchidan, qadimgi manbalar (masalan, antik davr)ga borib taqaladigan va koʻrib chiqilayotgan tilda kalka yoki oʻzlashma deb hisoblanadigan frazeologizmlar.

2. Ikkinchidan, o'sha tilning o'ziga "xos (noyob)" deb hisoblanadigan, ichki manbalardan olingan va o'z so'zlovchilari tomonidan rivojlantirilgan birliklardir. [4: 28]

Yu.Lotman nazariyasiga ko'ra, frazeologizmlar madaniyatning semiosfera qismidir va ular avloddan-avlodga o'tadigan ma'nolarni uzatadi.

Frazeologizmlar xalqning tarixiy-madaniy tajribasidan kelib chiqadi. Ularni shakllantiruvchi asosiy manbalar:

	Tabiat va geografiya	Kasb-hunar va maishiy turmush	Diniy va axloqiy qadriyatlar	Hayvonot obrazlari
O'zbek tilida	"tog'dek yengil tortmoq"	"bozorga tushmoq"	"ko'ngli og'rimoq"	"tulkidan qo'riqchi chiqmas"
Nemis tilida	„ein Stein fällt vom Herzen“	„mit offenen Karten spielen“	„jemanden ins Gebet einschließen“	„den Bock zum Gärtner machen“

Shu tariqa, har bir xalqning frazeologizmlari o'z madaniyatining "kodlari"ni o'zida mujassam etadi. Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya tildagi inson omiliga, aniqrog'i, madaniy omilga va insondagi til omiliga yo'naltirilgan. Bu esa, lingvokulturologiya inson haqidagi fanning antropologik paradigmasining bevosita mulki ekanligini, uning tortishish markazi esa madaniyat fenomeni ekanligini bildiradi. [2: 237]

Jan Assmannning madaniy xotira nazariyasi frazeologik birliklarni ijtimoiy xotira ombori sifatida tushuntirishga imkon beradi. O'zbek tilidagi maqol va matallar xalqning tarixiy hayoti, urf-odatlar va ijtimoiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, „Mehmon otangdan ulug'“ kabi maqollar o'zbek xalqining mehmondo'stlik qadriyatlarini aks ettirsa, „Ko'cha changini yutmoq“ kabi iboralar tarixiy ijtimoiy sharoitni yodga soladi. Eng umumiy xususiyatlari shulardan iborat bo'lgan metodologik asoslar doirasida lingvokulturologik tahlil orqali madaniyat frazeologizmlar-idiomalar va frazeologik birikmalar mazmunida qanday mujassamlashganini aniqlash, shuningdek, ularning madaniy-milliy konnotatsiyalarining ma'nosini belgilash mumkin. Bu konnotatsiyalar tufayli frazeologizmlar o'z ishlatilishi jarayonlarida xalq mentalitetining xarakterologik xususiyatlarini aks ettiradi. [2: 238]

Rus frazeologiya maktabi vakillaridan A. Kunin, N. Shanskiy, V. Mokienko kabi tilshunos olimlar frazeologiyaning nazariy asoslarini yaratib, ularning milliy madaniyat bilan aloqalarini ko'rsatgan. Nemis frazeologiyasida esa Harald Burger va Wolfgang Fleischer frazeologik birliklarning madaniy va kommunikativ xususiyatlarini o'rgangan. Bu tadqiqotlar frazeologiyaning madaniy kod sifatidagi vazifasini ochib berishda xizmat qiladi.

Matn ichida frazeologizmlarning qay holatda kelishiga qarab, ularni tahlil qilish mumkinligini Monika Sajankovaning „Phraseologismen in Theorie und Praxi“ asarida ko‘rish mumkin. Bunda matnda frazeologizmlarni qo‘llash uchun qat’iy “topologik” qoidalar mavjud emas, lekin muayyan preferensiyalar bor. Matnning boshida frazeologizmlar, masalan, mavzuga kirish vazifasini o‘tashi yoki sarlavhalarda o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilib, ularni tegishli maqolani o‘qishga undashi mumkin. Matnning oxirida frazeologizmlar matn xabarini umumlashtiradi yoki o‘ziga xos nuqta qo‘yish yakunlovchi mohiyatli ibora sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek va turkiy tilshunoslikdagi yondashuvlar ham diqqatga sazovor ekanligini ta’kidlab o‘tmoq darkordir. O‘zbek frazeologiyasini Sh. Rahmatullayev, G‘. Salomov, M. Mirtojiev va M. Jo‘rayev kabi olimlarning tadqiqotlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning tadqiqotlari frazeologizmlarning milliy xususiyatlarini, xalq og‘zaki ijodi bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Turkiy tilshunoslikda A. Kononov va A. Yuldashev kabi olimlar qadimiy turkiy manbalar asosida frazeologizmlarning tarixiy ildizlarini aniqlaganlar. O‘zbek tilshunos olimi Sh. Raxmatullayev frazeologiyaning rivojlanishida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Tilshunos olimning ta’kidlashiga ko‘ra, frazeologizmning semantik tuzilishi frazeologik ma’no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo‘shimcha ma’no bo‘yoqdorligidan iborat bo‘ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma’lumot frazeologik ma’no deyiladi. Frazeologik ma’no obrazlilik bilan leksik ma’nodan farq qiladi. Frazeologik ma’no o‘ziga xos semantik taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Bunda nafaqat frazeologik ma’no, balki leksema semantikasiga oid ma’no taraqqiyotini ham kuzatish imkoniyati yuzaga keladi hamda frazeologik birikmalardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi. [6: 238]

Rus tili frazeologiya sohasining ham rivojlanish bosqichlari mavjud bo‘lib, bunda A. Kuninning harakatlari beqiyosdir. U ingliz frazeologiyasini sinchkovlik bilan o‘rgangan, qolaversa, ingliz-rus frazeologik lug‘atining ham muallifi. U frazeologizmlarni „leksik variant“ sifatida ko‘radi va bunday leksik variantlar ma’nosi sifati va miqdori, uslubiy va sintaktik funksiyalari, boshqa so‘zlar bilan birikishi bo‘yicha bir xil hamda qisman farqli leksik tarkibga ega bo‘la turib, umumiy leksik invariantga ega bo‘lgan frazeologik birliklar deb hisoblaydi. [6: 118]

Frazeologik birliklar o‘ziga xos ma’noga ega. Frazeologik ma’noning o‘ziga xos xususiyatlarida uning tarkibiy asosi muhim rol o‘ynaydi. Frazeologizmning yaxlit ma’nosiga komponent asosining semantik ma’nosini qayta ko‘rib chiqish orqali erishiladi. Frazeologizmlar so‘zlardan farqli ma’noga egaligi yoki leksik jihatdan ular ma’noni tushuntirishning o‘ziga xos usulini talab qilishi idiomatiklik masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Buning uchun

frazeologizmlarning semantikasiga yoki frazeologizmlarning ayrim turlariga turli nuqtai nazardan yondashish kerak. [7: 134]

Frazeologizmlarni tarjima qilish nazariy jihatdan murakkab masala sanaladi. Boisi uni tashkil etuvchi elementlar hamisha ham o'zining asl ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Agar uning elementlarini birma-bir tarjima qilsak, bu frazeologizm emas, balki so'z birikmasidir. Bu borada E. Nida "dinamik ekvivalentlik" tushunchasini ilgari surib, tarjimaning asosiy vazifasi ma'noni emas, balki kommunikativ ta'sirni uzatish ekanini ta'kidlagan. L. Venuti esa "mahalliyashtirish" va "chetlashtirish" strategiyalarini ishlab chiqib, tarjimonning madaniy yondashuvini tushuntiradi. Va mana shu kabi turli tadqiqotlar, olib borilgan izlanishlar natijasida turli tillar doirasida frazeologizmlarni mos ekvivalentligini topish, uning asal ma'nosini saqlab qolishga intilish natijasida tilda frazeologizmlarning amalga oshirayotgan xususiyatlari o'zida saqlanib qoladi.

Shu jumladan, frazeologizmlar tarjimasida asosiy muammolar ham uchrab turadi. Quyida bir qancha muammoni tahlil qilamiz.

Dastlabki muammo bu ekvivalent yo'qligi, boshqa tilda tayyor muqobil iboraning bo'lmasligidir. Bundan tashqari madaniy obraz tafovutida ham bir qancha mushkulliklar uchrab turadi. Bunday holat asosan, har xil metafora va ramzlardan foydalanilishda namoyon bo'ladi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda pragmatik omillar ham asosiy rol o'ynaydi. Bir tilning iborasi hazil tusida, boshqasida jiddiyroq bo'lishi mumkin. Hamda maqollar tizimining farqi ham turli tillarda turlichadir. Mazmuni bir xil, ammo obraz va shakli farqlar bo'lishi mumkin.

Masalan, nemis tilidagi „Schmetterlinge im Bauch haben“ - sevgi, hayajonni anglatrsa, o'zbek tilida "dilida titroq sezmoq" kabi frazeologizmga to'g'ri keladi. Yoki, „mit einem blauen Auge davonkommen“- zo'rg'a qutulmoq ma'nosini anglatrsa, o'zbek tilida - "quruq qutulmoq" degan frazeologizm mavjuddir.

Shu bois frazeologizmlar tarjimasida ko'proq funksional ekvivalentlik, adaptatsiya va tavsifiy tarjima strategiyalari qo'llanadi. Shundagina boshqa bir tilda ma'no anglatayotgan turg'un iboralar ikkinchi tilda ham aynan o'zi tarjima qilinmasada, yondosh ma'noli frazeologizmlarni topish tillarni yanada jilokor qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamoq joizki, nemis va o'zbek frazeologizmlarining madaniy aloqalari ularning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tarjima jarayonida frazeologik birliklarni to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'lgani sababli, funksional ekvivalentlik va madaniy adaptatsiya strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ikki xalqning dunyoqarashi va mentalitetidagi o'xshashlik hamda farqlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Niemeyer. 1997
2. Teliya V. N. Russian Phraseology: A Cognitive View. Moscow: Languages of Russian Culture. 1996
3. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: De Gruyter. 2007
4. Piirainen E. Widespread Idioms in Europe and Beyond. De Gruyter Mouton. 2007
5. Rahmatullayev Sh. . O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: Fan. 1982
6. Кунин, А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. Дубна: Феникс, 2005.
7. Jukov V.P. Formoizmenenie frazeologizmov russkogo yazyka. Russistik, 1991
8. Ergasheva G.S. Nemischa frazeologizmlarning struktur-semantik tahlili (inson intellektual salohiyatini ifodalovchi iboralar misolida) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – № 10. – 2024. – 170-174-b. (2017-yil 29-avgustdagi 241/8 qarori)
9. Ergasheva G.S. Nemis tili frazeologiyasida “frazelogizm” va “frazema” tushunchalari tahlili // O'zMU XABARLARI. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. –2025/1/5. – 118-120 b.